
TERRORIZMNI MOLİYALASHTIRISH BILAN BOG'LIQ KO'RILAGAN JINOYAT ISHLARI, UNGA QARSHI KURASHISH HAMDA UNING HUQUQIY OQIBATLARI



Terrorizm – halqaro munosabatlarni murakkablashtirish, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzish, xavfsizligiga putur yetkazish, urush va qurolli mojarolar chiqarish, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish, aholini qo'rqitish maqsadida davlat organini, halqaro tashkilotni, ularning mansabdor shaxslarini, jismoniy yoki yuridik shaxsni biron bir faoliyatni amalga oshirishga yoki amalga oshirishdan tiyilishga majbur qilish uchun zo'rlik, kuch ishlatish, shaxs yoki mol-mulkka xavf tug'diruvchi boshqa qilmishlar yoxud ularni amalga oshirish tahdidi.



Terrorizmni moliyalashtirish, ya'ni terrorchilik tashkilotining mavjud bo'lishini, faoliyat ko'rsatishini, moliyalashtirilishini, terrorchilik faoliyatida ishtirok etish uchun xorijga chiqib ketishni yoki O'zbekiston Respublikasi hududi orqali harakatlanishni ta'minlashga, terrorchilik harakatini tayyorlash va sodir etishga, terrorchilik tashkilotlariga yoxud terrorchilik faoliyatiga ko'maklashayotgan yoki bunday faoliyatga ishtirok etayotgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita har qanday mablag'-vositalarini, resurslarni berishga yoki yig'ishga, boshqa xizmatlar ko'rsatishga qaratilgan faoliyat – Sakkiz yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.



O'sha harakatlar:

A) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;

B) mansbador shaxs tomonidan;

V) uyushgan guruh tomonidan sodir etilgan bo'lsa,-

o'n yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Terrorizmni moliyalashtirishda ishtirok etgan shaxs, agar u hokimiyat organlariga o'z vaqtida habar berish yoki boshqa usul bilan og'ir oqibatlar yuzaga kelishining hamda terrorchilar maqsadlari amalga oshirilishining oldini olishga faol ko'maklashgan bo'lsa, bosharti bu shaxsning harakatlarida jinoyatning boshqa tarkibi bo'lmasa, jinoiy javobgarlikdan ozod etiladi.

**Jinoyat ishlari bo'yicha Quvasoy shahar sudining raisi
Rustamjon Zaripov**

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook,](#)

2021-10-25 15:00:52